

Muqaddas Xoliqova

Muqaddas Holiqova 1960-yil 14-aprelda Toshkent shahrida tugʻilgan. 1977yili Toshkent Davlat sanʼat instituti “Teatr va kino” aktyorligi fakultetiga oʻqishga kirib, 1981-yili oʻqishni muvaffaqiyatli tugatgan.

Ginzburg Aleksandr Osipovich

Ginzburg Aleksandr Osipovich (1916 – 23.06.1973) Teatr rejissori. Oʻzbekistan xalq artisti (1959). Toshkent yosh tomoshabinlar teatri (1946–51),

Aziza Begmatova

Aziza Begmatova (07.09.1943) Aziza Begmatova 1943-yil 7-sentyabr sanasida Surxandaryo viloyatida tugʻilgan.

Lola Badalova

Lola Badalova 1928-yilda Toshkent shahrida tugʻilgan.

Iroda Mirzaxonovna Aliyeva

Iroda Mirzaxonovna Aliyeva (17.12.1929 – 07.06.1989)

O'zbekiston xalq artisti (1967). "A.Ostrovskiy nomidagi Toshkent teatr va rassomlik san'ati" (O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti) institutining "Dramatik teatr va kino aktyorligi" yo'nalishini tamomlagan (1951), Hamza (hozirgi O'zbek Milliy Akademik drama) teatrida ishladi (1951–1972), 1972–1989-yillar «O'zbekfilm» kinostudiyasida aktrisa. Nasiba («Og'riqtishlar»), Muqaddas («Chin muhabbat»), Shirin («Bir sevgi afsonasi»), Guzin («Turkiya haqida hikoya»), Kamola (R. Tagorning «Halokat» romani asosida yaratilgan inssenirovka – «Gang daryosining qizi»), Maryam («Jazoir, mening vatanim»), Asal («Sarvqomat dilbarim»), Nazokat («Parvona») rollarida Aliyeva muvaffaqiyat qozondi va lirik rollar ijrochisi sifatida tanildi. Yuksak texnika, mukammal sahna nutqiga ega bo'lgan Aliyeva qahramonlarining dunyoqarashi va ichki kechinmasini o'ziga xos sharqona xususiyat, nazokat bilan ifodalashga erishgan.

Kinoaktyor teatr-studiyasida Nina (A. Kason, «Yetti faryod», 1973), Enaga (A. Korneychuk, «Platon Krechet», 1974) va boshqa rollarni ijro etdi. Kinoda: «Akmal, ajdaho va malika» (1980), «Akmalning yangi sarguzashtlari» (1983) filmlarida yalmog'iz kampir obrazini yaratdi.

Melis Abzalov

Melis Abzalov (18.11.1938 – 26.10.2016)

O'zbek aktori, rejissori va ssenariychisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist (1987).

O'zDSMI Farg'ona filiali

dsmi-qf.uz

O'zDSMI Nukus filiali

Nukus filiali tarixi

Xalqimizning bektakror san'ati va madaniyatini yanada yuksaltirish, madaniyat va san'at sohasida teatr, kino, televideniye va xalq ijodiyoti yo'nalishlari bo'yicha yuqori tayyarlardagi akterlar va san'atshunoslik sohasida mutaxassislarini tayyorlash maqsadida 2008 yil 28 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston davlat san'at institutining Nukus filialini tashkil etish o'z tadbirlari to'g'risida»gi PQ 845-son qarori qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, O'zbekiston davlat san'at institutining Nukus filiali tashkil etildi. Keyinchalik 2012 yil 4 iyunda «O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti tashkil etish to'g'risida»gi PQ-1771-son qaroriga asos O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Nukus filiali bo'lib qayta tashkil etildi.

Filial dastlabki ochilgan yili «Saxna v ekran san'ati dramaturgiyasi» v «Drama teatri v kinoaktyorligi san'ati» ta'lim yo'nalishlarida 25 talaba qabul qilingan bo'lsa, hozirgi vaqtda 9ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha 700 dan ortiq talaba bilim olmoqda. Bugungi kunda filiala 1ta fakultet va 5ta kafedrada 54 professor-o'qituvchi talabalarning yetuk kadr bo'lib yetilishida ta'lim-tarbiya berib kelmoqda.

Filialda O'zbekiston v Qoraqalpog'iston xalq arlari, O'zbekiston v Qoraqalpog'istonga xizmat kursgan artistlar, Qoraqalpog'iston xalq baxshilarining dars berayotganligi nazariy bilimlar va amaliyotni o'z-aro bog' liqlik holda olib borishga, shuningdek, talaba-yoshlarning o'z ta'lim yo'nalishlari bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lib etishida katta ahamiyat kasb etadi.

2020-2021-o'quv yilida filialning kunduzgi bo'limiga yangidan «Professional ta'lim: Xalq ijodiyoti (Vokal ijrochiligi)» ta'lim yo'nalishi bilan birga, mazkur yilda filialning sirtqi bo'limi ham ochildi. Yangidan ochilgan sirtqi bo'limda «San'atshunoslik (saxna va ekran san'ati dramaturgiyasi)», «Madanat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish», «Kutubxona-axborot xizmati (kutubxonachilik v bibliografiya)» ta'lim yo'nalishlari uchunvo k talar ajratilgan bo'lib, bugungi kunda sirtqi bo'limda 100 nafar talaba bilim olmoqda. Filialda bilim olayotgan talaba-yoshlarning san'atga bo'lgan kiziquvchanligini orttirish maqsadida 2018 yili «Tumar» raqs ansambli tashkil etildi. Qisqa davr ichida «Tumar» raqs ansamblya respublikimiz miqyosida keng tanildi va bugungi kunda Mustaqillik va Navruz bayramlarida o'z konsert dasturlari bilan ishtirok etib kelmoqda.

Batafsil Nukus filiali haqida ->